

tizimlariga mos keladigan moliyaviy yechimlarni qidirayotgan shaxslar va muassasalarga yoqadigan muqobil variantlarni taklif qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom moliya huquqi manbalari nisbatan o'zgarmas xarakterga ega. Ammo bu uning turg'un yoki moslashuvchan emasligini anglatmaydi. Uning asosiy manbalari hisoblanmish Qur'on va Sunnat islom fiqhi uchun fundamental tamoyillarni belgilab berdi. Keyingi qator manbalar esa ushbu tamoyil va qoidalar belgilab bergan mezonlardan chiqmagan holda har qanday tijoriy, moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis). <https://president.uz/>

2. Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Байдаулет. – Toshkent: "O'zbekiston" HMIY, 2019. -7, 9 b.

3. "The Islamic doctrine of economics and contemporary economic thought: Highlight of a conference on a theological inquiry into capitalism and socialism", Dr Muhammad Abdul Rauf – Washington 1979 First Edition, American Enterprise Institute. ISBN 0-8447-1333-3.

4. "Islom moliyasiga kirish", Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy, Maktaba Ma'ariful Quran Karachi – 2007, Mehran Printers, Karachi).

5. Usmani, M. T. (1998). An introduction to Islamic finance. Idaratul Ma'arif, Karachi.

6. Khan, T., & Ahmed, H. (2001). Risk-sharing, commitment, and the banking role of Islamic financial intermediaries. Research Paper No. 127 (Islamic Research and Training Institute).

7. Global Islamic Finance Report (GIFR) – "Fatwa and Shariah Boards in Islamic Finance" (<http://www.gifr.net/gifr2019.pdf>)

8. "Fiqh Council of North America" <https://fiqh-council.org/>.

9. Majid, M. A. (Ed.). (2013). Islamic Finance: Performance and Efficiency Perspectives. Palgrave Macmillan.

ISLOMIY MOLIYA INDUSTRIYASI UCHUN QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INFRATUZILMA KOMPONENTLARI

Yorqulov Umidjon Muzaffar o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti doktoranti

"IFAAS" konsalting firmasi maslahatchisi

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Islomiy moliya industriyasining barqaror rivojlanishi uchun qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish zarur. Ivanovning fikriga ko'ra, moliyaviy infratuzilma tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida alohida tizimli mazmunga ega bo'lib, moliyaviy infratuzilma davlat,

xususiy tuzilmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida moliyaviy oqimlarning harakatlanishini ta'minlovchi institutlar majmuasi sifatida tushuniladi³⁵³. Islomiy moliya uchun zarur infratuzilma borasidab a'zi ilmiy ishlar doirasida Islomiy moliya infratuzilmasi yoki ekotizimi haqida, uning tarkibiy qismlari hususida muhokamalar olib borilgan. Ayniqsa, Trunin va boshqalar³⁵⁴ tomonidan olib borilgan tadqiqotda bu mavzu ko'tarilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan S. Abrorov Islomiy kapital bozori ekotizimi tushunchasiga ta'rif bergan. 1-jadvalda moliyaviy va Islomiy moliyaviy infratuzilma yoki ekotizimga berilgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta'riflar keltirilgan.

Shuningdek, ta'kidlash lozimki, Islom taraqqiyot banki instituti (ITBI) Islomiy moliyaviy infratuzilmaning quvvati, barqarorligi va mavjud bo'shliqlarini baholash imkonini beruvchi tizimni ishlab chiqdi. Ushbu tizim "Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi" (IF-MAP) deb nomlanadi³⁵⁵. IF-MAP muayyan ITBga a'zo davlatda Islomiy moliyaviy ekotizimning(infratuzilmaning) asosiy komponentlarini baholash uchun ishlab chiqilgan.

Turli tadqiqot va tahlillar asosida, IF-MAP tizimi mualliflari quyidagi komponentlarni Islomiy moliya industriyasi infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini belgilovchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida aniqladilar: davlat qo'llab-quvvatlashi, huquqiy baza, soliq rejimi, normativ-huquqiy baza, Shariat boshqaruv tizimi, moliyaviy xavfsizlik tizimi, Islomiy likvidlik vositalari, inson kapitali, aholi xabardorligi, bozor rivojlanganligi. Har komponent bo'yicha tavsif 2-Jadvalda keltirilgan.

IF-MAP metodologiyasi har bir komponentni tegishli sektorlar bo'yicha baholash orqali industriya infratuzilmasining rivojlanish darajasini quyidagi bosqichlarda aniqlash imkonini beradi: rivojlanmagan (0-20%), boshlang'ich (21-40%), rivojlanayotgan (41-60%), imkoniyat yaratuvchi (61-80%), rivojlangan (81-100%).

Islomiy moliya industriyasining qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasini (IMIQT) shakllanishi va rivojlanishida muhim hisoblangan komponentlarni aniqlash maqsadida Islomiy moliya sohasida ko'p yillik ish tajribasi va maslahat berish amaliyotiga ega bo'lgan mahalliy va xalqaro mutaxassislar hamda Islomiy moliya sohasida tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar o'rtasida ekspert so'rovnomasi o'tkazildi. Shunday qilib, ushbu so'rovnomada quyidagi turdagi mutaxassislar ishtirok etdilar: sohada 10-12 yillik tajribaga ega mutaxassislar, qo'shni davlatlar (Tojikiston, Qozog'iston) markaziy banklari va tartibga soluvchilarining Islomiy moliya sektoriga rahbarlik qiluvchi mutaxassislari, AAOIFI xalqaro sertifikatlariga ega bo'lgan shaxslar(jumladan, Sertifikatlangan Shariat Maslahatchisi va Auditori), Islomiy moliya instituti sobiq xodimi,

³⁵³ Ivanova T. B. Global moliyaviy infratuzilma va uning rivojlanish bosqichlari // Izvestiya vuzov. Shimoliy Kavkaz mintaqasi: Ijtimoiy fanlar. — 2003. — № 12. — B. 69.

³⁵⁴ Trunin P., Kamenskix M., Muftiyevdinova M. Islomiy moliya tizimi: zamonaviy holat va rivojlanish istiqbollari. — Moskva: IEPP, 2009

³⁵⁵ ISDB. 2022. Islamic Finance Country Assessment Framework. Доступно «<https://isdbinstitute.org/product/islamic-finance-country-assessment-framework-if-caf/>»

Malayziyadagi Islomiy moliya bo'yicha yetakchi universitet – INCEIF doktoranti va boshqalar.

"Moliyaviy infratuzilma" tushunchasining ta'rifi		"Islomiy moliyaviy infratuzilma" tushunchasining ta'rifi	
Muallif	Ta'rif	Muallif	Ta'rif
Alekseyev V.N. (2013) "Moliyaviy infratuzilma va uning elementlari: konseptual yondashuv"	Kvazistabil tizim bo'lib, u moliyaviy resurslarni boshqarish, ularni shakllantirish, tartibga solish, investitsiya qilish hamda nazorat qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni vositachilik orqali ta'minlaydigan funktsional quyi tizimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar kengayib borayotgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.	Trunin P., Kamenskix M., Muftiyevdinova M. (2009) "Islomiy moliya tizimi: zamonaviy holat va rivojlanish istiqbollari"	Islomiy moliyaviy infratuzilma quyidagilarni o'z ichiga oladi: to'lov tizimi; skrlining tizimlari, savdo va kliring tizimlari; internet-biznes infratuzilmasi; iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va likvidlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beruvchi tashkilotlar; tartibga soluvchi organlar; moliyaviy hisobot standartlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi idoralar; reyting agentliklari; statistik ma'lumotlarni taqdim etuvchi tashkilotlar; ta'lim muassasalari; ilmiy-tadqiqot tashkilotlari.
Nosova S. S. (2008) "Iqtisodiy nazariya"	Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi hamda aholining kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlaydigan tarmoqlar, obyektlar va inshootlar majmuasi.	Islom taraqqiyot banki instituti tomonidan ishlab chiqilgan Islomiy moliya infratuzilmasini baholash tizimi (IF-MAP)	Islomiy moliyaviy infratuzilmani (yoki Islomiy moliyaviy ekotizimni) 10 ta asosiy komponent orqali baholash taklif etilgan: davlat qo'llab-quvvatlashi, huquqiy baza, soliq rejimi, normativ-huquqiy baza, Shariat boshqaruv tizimi, inson kapitali, Islomiy likvidlik vositalari, aholi xabardorligi, moliyaviy xavfsizlik tizimi, bozor rivojlanganligi. IF-MAP — Islom taraqqiyot bankiga a'zo mamlakatlardagi Islomiy moliya ekotizimini baholash uchun ishlab chiqilgan instrument bo'lib, u mazkur 10 ta komponent bo'yicha sifat va miqdoriy baholash mezonlariga asoslangan aniq va ishonchli baholash metodologiyasini o'z ichiga oladi.
Ivanova T. B. (2003) "Global moliyaviy infratuzilma va uning rivojlanish bosqichlari"	Davlat, xususiy tuzilmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida moliyaviy oqimlarning harakatini ta'minlaydigan institutlar majmuasi.	S. Abrorov " O'zbekistonda Islom kapital bozori ekotizimini shakllantirishning metodologik asoslari"	Islom kapital bozori ekotizimi bu – bozor faoliyati va rivoji uchun xizmat qiluvchi o'zaro bir-biri bilan bog'langan sohalar, institutlar, ishtirokchilar va boshqa shu kabi elementlar agregatsiyasi.
Kurchenko L. F. (2010) "Rossiya Federatsiyasi ning moliya va moliyaviy tizimi: o'quv qo'llanma"	Moliya oqimlarini boshqaruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi moliyaviy institutlar majmuasi.	Muallif ta'rifi	Islomiy moliyaviy infratuzilma – Islomiy moliya industriyasining rivojlanishini ta'minlaydigan va uning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi infratuzilma komponentlari majmuasi.

1-jadval Turli mualliflar tomonidan berilgan "moliyaviy infratuzilma" va "Islomiy moliyaviy infratuzilma" tushunchalarining ta'riflari

2-jadval. "Islomiy moliya strategik xaritalash tizimi" (IF-MAP) komponentlari³⁵⁶

KOMPONENT	KOMPONENT TA'RIFI
1. Davlat qo'llab-quvvatlashi	Islomiy moliyani qo'llab-quvvatlovchi siyosat, shu jumladan moliyaviy inklyuzivlik va real iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish kabi tashabbuslarni o'z ichiga olgan kuchli davlat yordami har qanday mamlakatda barqaror va har tomonlama qamrovli Islomiy moliya infratuzilmasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.
2. Huquqiy baza	Islomiy moliya uchun qulay huquqiy baza Islomiy moliya institutlari(IMI) uchun zarur bo'lgan huquqiy asos bilan ta'minlaydi va ularning o'ziga xos mahsulotlari hamda operatsiyalari uchun mustahkam qonunchilik asosini yaratadi.
3. Soliq rejimi	IMI va ularning an'anaviy muqobillari uchun soliq solish sharoitlarining tenglashtirilishi soliq neytralligiga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.
4. Normativ-qonunosti baza	Islomiy moliya uchun qulay normativ-huquqiy va nazorat tizimini shakllantirish IMIning maxsus talab va ehtiyojlariga mos keladigan tartibga solish tizimini joriy etishda muhim rol o'ynaydi.
5. Shariat boshqaruv tizimi	Shariatga muvofiqlik Islomiy moliya industriasining mavjudligining asosi tashkil etadi.
6. Moliyaviy xavfsizlik tizimi	Islomiy depozitlarni himoyalash mexanizmi kabi Moliyaviy xavfsizlik tizimi vositalari har qanday mamlakatdagi moliyaviy tizim ishtirokchilarining xavfsizligi va ishonchini ta'minlaydi, bu Islomiy moliya uchun ham istisno emas.
7. Islomiy likvidlik vositalari	Likvidlikka oid tavakkalchiliklar IMI duch keladigan eng keng tarqalgan tavakkalchiliklar qatoriga kiradi.
8. Inson kapitali	Yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan professional hamda malakali inson resurslarini rivojlantirish Islomiy moliya industriasining muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega.
9. Aholi xabardorligi	Jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlari orasida xabardorlikni oshirish IMIning imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning bozor ulushini oshiradi.
10. Bozor rivojlanganligi	Ushbu komponent doirasida baholanishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat: mahalliy moliya bozorlari hajmi va ishtirokchilari soni, taklif qilinayotgan mahsulotlar turlari (shu jumladan, Vaqf, Zakot, Sadaqa asosidagi Islomiy ijtimoiy moliya mahsulotlari), Islomiy moliyaviy mahsulotlarning raqobatbardoshligi, moliyaviy inklyuzivlik ko'rsatkichlari va boshqalar.

Dastlab, ishtirokchilarga ro'yxatdagi komponentlar/omillarni tanlash imkoniyati berildi (birdaniga bir nechta omillarni tanlash mumkin edi) va shuningdek, ishtirokchilar Markaziy Osiyo mamlakatlarida Islomiy moliyaning qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim deb hisoblagan komponentlar yoki omillarni qo'shimcha ravishda taklif etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. So'rovnomaning keyingi bosqichida, ishtirokchilar tanlangan yoki taklif etilgan komponentlar/omillarning Islomiy moliya infratuzilmasini rivojlantirishdagi ahamiyatini 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida baholadilar: 0 - yo'q, ushbu komponent/omil tanlanmagan; 1 – komponent/omil IMIQI uchun

³⁵⁶ Muallif tomonidan IF-MAP metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

kam sonli muhim elementlarni qamrab oladi; 2 - komponent/omil IMIQI uchun o'rtacha darajadagi muhim elementlarni qamrab oladi; 3 - komponent/omil IMIQI uchun ko'plab muhim elementlarni qamrab oladi; 4 - komponent/omil IMIQI shakllanishi uchun juda muhim hisoblanadi; 5 - komponent/omil IMIQI shakllanishi uchun nihoyatda muhim hisoblanadi.

So'rovnoma natijalari quyida 3-jadvalda keltirilmoqda. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, so'rovnomada ishtirok etgan ekspertlarning uchdan ikki qismi barcha 10ta omilni IMIQIning shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, barcha (ya'ni 100%) ishtirokchilar davlat qo'llab-quvvatlashi, huquqiy baza, soliq rejimi, normativ-huquqiy baza va Shariat boshqaruv tizimi kabi 5 ta komponentlarni/omillarni IMIQI uchun eng muhim komponentlar/omillar sifatida tanladilar.

Shuningdek, ekspertlarning fikriga ko'ra, yuqorida sanab o'tilgan ushbu 5 ta komponent/omil (davlat qo'llab-quvvatlashi, huquqiy baza, soliq rejimi, normativ-qonunosti baza va Shariat boshqaruv tizimi) asosiy omillar bo'lib, har biri 5 ballik shkala bo'yicha o'rtacha 4.56 ball bilan baholandi. Shundan kelib chiqib, moliyaviy faoliyatning Shariat me'yorlariga muvofiqligini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi kuchli tizimni joriy etish Islomiy moliyaning qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirishning eng muhim jihatlaridan biri deb topildi.

3 – jadval. Islomiy Moliya Industriyasining qo'llab-quvvatlovchi Infratuzilmasini (IMIQI) Omillari bo'yicha Ekspert So'rovnoma Natijalari³⁵⁷

#	Komponent/ Omil	Komponent/ omilni muhim deb hisoblagan ishtirokchilar soni	Komponent/ omilni muhim deb hisoblagan ishtirokchilar ulushi (%)	Komponent/ omilning o'rtacha ahamiyat bahosi (1-5 shkala)	Komponent/ omil ahamiyatining ishtirokchilar soniga bog'liq bahosi
1.	Davlat qo'llab-quvvatlashi	9	100%	4.56	4.56
2.	Huquqiy baza	9	100%	4.56	4.56
3.	Soliq rejimi	9	100%	4.56	4.56
4.	Normativ-qonunosti baza	9	100%	4.56	4.56
5.	Shariat boshqaruv tizimi	9	100%	4.56	4.56
6.	Inson kapitali	8	89%	4.13	3.68
7.	Islomiy likvidlik vositalari	7	78%	4.29	3.35
8.	Aholi xabardorligi	7	78%	4.14	3.23
9.	Moliyaviy xavfsizlik tizimi	6	67%	4.00	2.68
10.	Bozor rivojlanganligi	6	67%	3.86	2.59

Shu tariqa, so'rovnoma natijalari shuni tasdiqladiki, Islom taraqqiyot banki

³⁵⁷Muallif tomonidan ekspert so'rovi natijalari asosida ishlab chiqilgan.

instituti tomonidan ishlab chiqilgan IF-MAP metodologiyasida taklif qilingan IMIQIning shakllantirish va rivojlantirish komponentlari/omillari Islomiy moliya industriyasining qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu metodologiyadan O'zbekistonda Islomiy moliya industriyasini shakllantirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINING ISLOM MOLİYASI MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Vazirov Azamat Yoqubjonovich
Namangan Davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada jahon moliya bozorida keng o'rin olib rivojlanib borayotgan islom moliyasining kichik biznes sub'yektlarida qo'llanilishi tahlil etilgan. Kichik biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirish va modernizatsiya qilishga islom tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslarni va investitsiyalarni jalb etish masalalari, islom moliyasini rivojlantirish imkoniyatlari va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, islom moliyasi, islom moliya tizimi, mushoraka, muzoraba, islom moliyasi tamoyillari, baliqchilik xo'jaligi.

Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig'ini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil qilganligi sababli aholi va kichik biznes vakillari o'rtasida islom moliyasiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga oid iqtisodiy islohotlar amalga oshirishda ushbu holatni inobatga olgan holda ular faoliyatini moliyalashtirishning dunyoda ham ommalashib borayotgan islom moliyasini milliy moliya bozorida joriy etishga e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi"³⁵⁸. Shu munosabat bilan mamlakatimizda islom iqtisodiyoti va moliyasining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish zaruriyati yuzaga chiqdi.

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistondagi kichik biznes sub'yektlarining 80 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladi va ularning chorak qismigina tijorat banki kreditlaridan foydalanadi. Tijorat banklarida esa kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun sanoqli mahsulotlarga mavjud. O'zbekistonda islom moliyasi bo'yicha biznes vakillari hamda aholi ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra biznes sub'yektlarining 38 foizi, jismoniy shaxslarning esa 56 foizi diniy qarashlari sabab tijorat banklari kredit xizmatidan foydalanmaydilar.

³⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 29.12.2020.